

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AVTOMOBIL YO‘LLARI QO‘MITASI
“YO‘L LOYIHA EXPERTIZA”
UNITAR KORXONASI**

**Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini
ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha**

«Yakkabog‘ TYFUK» bilan

**2022 yil «02» fevraldagi
№60-1-sonli**

SHARTNOMA

1. Tomonlarning majburiyati

1.1. “Buyurtmachi”:

Shartnoma bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan summaning 100% o‘g‘ oldinroq
Buyurtmachi ning bankdagi hisob raqamiga o‘tkaziladi.

Ushbu shartnomaga asoslanib ko‘rsatilgan muddatlarda “Bajaruvchi” ga
ekspertizadan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va mashina
xarajati ekspluatatsiyasi kalkulyatsiyasini taqdim etadi.

1.2. “Bajaruvchi”:

Ekspertizadan o‘tkazish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan barcha hujjatlar
o‘z ichiga olganidan so‘ng 15 kun muddatida bajarishini.

Bajarilgan ishlarini ekspertiza xizmati bilan rasmiylashtirilishini o‘z zimmasiga
oladi.

Ushbu shartnoma shartlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar
o‘z ichiga olgan barcha majburiyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Toshkent sh. – 2022 yil

**Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini
ekspertizadan o'tkazish bo'yicha
№60-1-sonli SHARTNOMA**

Toshkent shahri

«02» fevral 2022 yil

Bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataluvchi «Yakkabog' TYFUK» Ustav asosida ish yurituvchi **Direktori Q.Maxkamov** bir tomondan, bundan keyin "Bajaruvchi" deb ataluvchi **"YO'L LOYIHA EXPERTIZA" UNITAR KORXONASI** Ustav asosida ishlovchi Direktor buyrug'iga binoan ish yurituvchi **bosh muxandis A.Artikov** ikkinchi tomondan va kelgusida "Tomonlar" o'rtasida quyidagi shartlar asosida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.Shartnoma mazmuni

1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ning topshirig'iga asosan shartnomaning ilovasida keltirilgan **Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini ekspertizadan o'tkazishni** "Buyurtmachi" esa xizmat haqini o'z vaqtida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning kelishilgan qiymat baxosi ilovaga asosan QQS bilan **544 304,0 (Besh yuz qirq to'rt ming uch yuz to'rt) so'mni tashkil etadi.**

1.3. Shartnomaning narxi tomonlarning o'zaro kelishuvi va qo'shimcha shartlar asosida bajariladigan ishlar hajmi ortganda va turlari o'zgarganda shartnomaning summasi qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

1.4. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilib olish o'rnatilgan tartibda "Tomonlar"ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadigan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

2.Tomonlarning majburiyati

2.1. "Buyurtmachi":

- shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 100 foiz oldindan "Bajaruvchi"ning bankdagi hisob raqamiga o'tkazishni;

- ushbu shartnomaga asosan kelishilgan muddatlarda "Bajaruvchi"ga ekspertizadan o'tkazish uchun zarur bo'lgan birlamchi hujjatlar va mashina-mexanizmlar ekspluatatsiyasi kalkulyatsiyasini taqdim etadi.

2.2. "Bajaruvchi":

- ekspertizadan o'tkazish ishlarini "Buyurtmachi" tomonidan barcha hujjatlar taqdim etilgandan so'ng 15 kun muddatda bajarilishini;

- bajarilgan ishlarni ekspertiza xulosasi bilan rasmiylashtirilishini o'z zimmasiga oladi.

2.3. Tomonlar shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. Shartnomani bekor qilish

6.1. Mazkur shartnoma:

a) sudning qaroriga binoan;

b) "Tomonlar"ning o'zaro kelishuviga ko'ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

6.2. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

6.3. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

6.4. Shartnomani bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan nizolar, tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

8. Qo'shimcha shartlar

8.1. Ushbu shartnoma "Tomonlar"ning imzolanishi bilan kuchga kiradi va tomonlarning majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

8.2. "Tomonlar"ning yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda 5 kun ichida ikkinchi tomonga yozma ravishda ma'lum qilishi lozim.

8.4. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada o'zbek tilida tuzildi.

9. Tomonlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

Bajaruvchi:

"YO'L LOYIHA EXPERTIZA" UK
Toshkent sh. Mirzo Ulug'bek tumani
Katta Darxon 2-tor ko'cha 5-uy
H/R 2021 0000 9024 6196 4001
"DAVR BANK" XATB Toshkent sh.
Mirzo Ulug'bek fil. MFO 01072
INN 202 330 936 OKED 71120

Bosh mutaxassis




A.Artikov

Roziyeva A.

Buyurtmachi:

«Yakkabog' TYFUK»
Qashqadaryo vil, Yakkabog' shaxri.
Saxovat kuchasi 5-uy.
x/r:2021 0000 3003 8769 6001
NBU Shaxrisabz"Milliy bank" MFO:
00191
INN:200 708 679 OKED: 42110

Direktor



Q.Maxkamov

3. Tomonlarning huquqlari

3.1. "Buyurtmachi":

- "Bajaruvchi" dan ishlarni shartnomada belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- ekspertiza natijalarini tegishli ekspertiza xulosasi shaklida rasmiylashtirilishini;
- shartnoma shartlari asossiz bajarilmaganda yoki kechiktirilganda neustoyka to'lashni talab qilish huquqiga ega.

3.2. "Bajaruvchi":

- shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 100 foiz oldindan to'lanishini;
- ekspertizadan o'tkazish uchun zarur bo'lgan birlamchi hujjatlar va mashina-mexanizmlar ekspluatatsiyasi kalkulyatsiyasini "Buyurtmachi" tomonidan taqdim etilishini;
- "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma shartlari asossiz ravishda bajarilmaganda yoki kechiktirilganda neustoyka to'lashni talab qilish huquqiga ega.

3.3. "Tomonlar" shartnoma shartlarini bajarishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4. Tomonlarning javobgarligi

4.1. "Bajaruvchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan muddatda majburiyatlarni bajarmagan taqdirda "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. "Buyurtmachi" bajariladigan ishlar xaqini ya'ni shartnomada ko'rsatilgan summani o'z vaqtida to'lamaganlik uchun o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Penyani to'lash "Tomonlar"ni shartnoma bo'yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

5. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

5.1. Agar shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, "Tomonlar" shartnoma majburiyatlaridan qisman yoki to'liq ozod etiladilar.

5.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

5.3. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

2022 yil «02» fevraldagi
№60-1-sonli shartnomaga
ilova

**Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini
ekspertizadan o'tkazish uchun shartnomaning bahosi bo'yicha**

BAYONNOMA

“Buyurtmachi” «Yakkabog‘ TYFUK» nomidan **Q.Maxkamov** va “Bajaruvchi” “YO‘L LOYIHA EXPERTIZA” UNITAR KORXONASI tomonidan **A.Artikov** lar 2021 yil 02 iyunda tasdiqlangan “Ekspertiza ishlarini bajarishga ketgan xarajatlar xisob kitobi kalkulyatsiyasi”ga asosan Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi shartnomaning umumiy summasini QQS bilan birga **544 304,0 (Besh yuz qirq to'rt ming uch yuz to'rt) so'm deb belgiladik.**

Mazkur bayonnoma “Buyurtmachi” bilan “Bajaruvchi” o'rtasidagi 2022 yil «02» fevraldagi №60-1-sonli shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitob va to'lovlarni amalga oshirish bahosi hisoblanadi.

Bajaruvchi:



A.Artikov

Buyurtmachi:



Q.Maxkamov

**2022 yil «02» fevraldagi №60-1-sonli shartnoma bo'yicha ekspertiza
xulosasini topshirish-qabul qilish to'g'risidagi
DALOLATNOMA**

Toshkent sh.

“ ” _____ 2022 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar, Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi shartnomani ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish to'g'risidagi 2022 yil «02» fevraldagi №60-1-sonli shartnoma bo'yicha ekspertiza xulosasi tayyorligi to'g'risida tuzdik.



№	Ishlarning nomi	Bahosi QQS bilan so'm.	Bajarilgan		
			Ish boshidan 2022 y ga % summa	Ish boshidan 2022 y ga % summa	Ish boshidan 2022 y ga % summa
1	Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini ekspertizadan o'tkazish	544 304,0	QQS bilan		
	Shu jumladan QQS (15%)	70 996,17			
	Umumiy to'lov summasi QQS bilan	Besh yuz qirq to'rt ming uch yuz to'rt so'm			

“BAJARUVCHI”

Bosh muxandis  A. Artikov
Bosh boshlig'i  K. Nasirov



“BUYURTMACHI”

Direktor  Q. Maxkamov
“Buyurtmachi”ning mas'ul vakili 



2022 yil «02» fevraldagi №60-1-sonli shartnomaga
2022 yil “ ” “ ” – sonli

HISOB-VARAQA

“Bajaruvchi”: “YO‘L LOYIHA EXPERTIZA” UNITAR KORXONASI Manzil: 100052 Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tum. Katta Darxon 2-tor ko‘chasi 5-uy. H/R 2021 0000 9024 6196 4001 MFO 01072 INN 202 330 936 Ro‘yxatdan o‘tish kodi: 3260 2001 1310	Buyurtmachi: «Yakkabog‘ TYFUK» Manzil: Qashqadaryo vil, Yakkabog‘ shaxri, Saxovat kuchasi 5-uy. Tel: 58-22-565, 94-450-33-31 INN: 200 708 679 Ro‘yxatdan o‘tish kodi: 3101 6001 0323
--	--

№	Ko‘rsatilgan xizmat nomi	O‘lchov birligi	Soni	Baxosi QQS siz	QQS		Yetkazib berish narhi QQS bilan
					stavkasi	Summasi	
1	Mashina mexanizmlar ekspluatatsiyasi xarajatlari hisob-kitobini ekspertizadan o‘tkazish	so‘m	1	473 307,83	15 %	70 996,17	544 304,0
Jami :				473 307,83	15 %	70 996,17	544 304,0
Umumiy to‘lov summasi QQS bilan				Besh yuz qirq to‘rt ming uch yuz to‘rt so‘m			

“Bajaruvchi”
Bosh hisobchi
Bosh boshlig‘i



“Buyurtmachi”
Bosh hisobchi

